
Tumanimizdagi 5 ta mahallada yengil konstruktsiyali tibbiyot punktlari tashkil etilmooqda

Keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi sog'liqni saqlash tizimida ham amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida aholi salomatligi yo'lida tub o'zgarishlar bo'lmoxda. Ayniqsa, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati yildan yilga yaxshilanib borayotir.

Xususan, olis va chekka hududlar aholisiga birlamchi tibbiy yordamning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida Rishton tumanining "Dasht Tegirmon", "Oq-tomir", "Yangi avlod", "So'xobod" mahalla fuqarolar yig'inlarida shuningdek, "O'rikzor" mahalla tibbiy punktlarini tashkil etish bo'yicha manzilli ishlar davom etmoqda.

Ushbu hududlarga bosqichma-bosqich mahalla tibbiy punktlari uchun maxsus konteynerlar olib kelinib, aholi uchun foydalanishga topshirilishi belgilangan.

Endilikda tibbiy uskunalar, internet, zamonaviy aloqa vositalari, dori-darmonlar bilan jihozlangan tibbiy punktlar qishloq aholisi uchun xizmat ko'rsatadi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-08-10 11:02:53